
ABULQOSIM MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING ISLOM DUNYOSIDA TUTGAN O‘RNI VA TAFSIR ILMI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7820560>

Xudoyberdiyev Anvar Megli o‘g‘li

anvarxudoyberdiyev258@gmail.com

O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Maqolamizning asil mohiyatiga nazar tashlasak o‘rta asrlarda islom olamining eng yorqin namoyondalaridan biri sanalgan muhaddis olim Mahmud az-Zamaxshariy hayot haqida atroflicha fikr yuritamiz. Xususan maqolamizning avvalida olim hayoti, uning islom olamida tutgan o‘rni, arab lingvistik til muhiti shakillanishiga qo‘shgan hissasi shuningdek Yevropa ilm fanida yuqori ahamiyat kasb etuvchi nodir asarlari haqida so‘z borsa uning ikkinchi qismida qomusiy olimning tafsir ilmi rivojlanishidagi say harakatlari hamda muqaddas Qur‘oni oyatlari tafsiriga bag‘ishlangan Al-Kashshof asari tarixi va qisqacha taxlili haqida so‘z yuritamiz.

Abstract.

If we look at the essence of our article, we will think about the life of muhaddis scholar Abul Qosim Mahmud az-Zamakhshari, who was considered one of the brightest manifestations of the islamic world in the middle Ages. In particular, at the beginning of our article, the life of the scholar, his place in the islamic world, and the formation of the arabic linguistic environment will be discussed. In the second part, will talk about the efforts of the ency in the encyclopedist in the development of the science of interpretation and the histori and brief analysis of Al-Kashshof, a work dedicated to the interpretation of the verses of the Holy Qur‘an.

Kalit so‘zlar.

Ka‘bai muazzama, Jorulloh, Makka, Qur‘oni karim tafsiri, Ka‘ba al-udabo, Al-Kashshof, Hanafiy, Mo‘tazili, Baqra surasi, Al-Mufasssal

Key words.

Ka‘bai Muazzama, Jorullah, Makkal, Tafsir of the Holy Qur‘an, Ka‘ba al-Udaboh, Al-Kashshof, Hanafi, Mutazili, Al-Baqarah surah, Al-Mufasssal

O‘rta asrlarning ulug‘ siymolaridan bo‘lgan mufasssir, muhaddis, mutakallim, tilshinos, adib va qator ilmlarning mukammal sohibi bo‘lmish

Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad al-Xorazmiy al Zamaxshariy hijriy 467-yil rajab oyining 27- kuni(1075-yil 18-martda) Xorazm yaqinidagi G'oro'g'li (hozirgi Turkmanistonning Toshhovuz viloyati) shahridan 26 km g'arbda joylashgan Zamaxshar shaxrida tavallud topgan [1. 182 183].Tarjimayi hol mualliflari uni asli kelib chiqishi fors deb hisoblaydi .Ammo bu davrda turklar Xorazmning asosiy qismini tashkil qilgandan kelib chiqsak turkiy sulola vakili ekanligi oydinlashadi .Otasi zamonasining taqvodor, ilmi kishilaridan bo'lgan va aksar vaqtini qur'on tilovat , namoz-u ibodatda o'tkazib, zamaxshardagi masjidida imomlik qilgan . Otasi saljuqiylar vaziri Muayyid al-Mulk tomonidan qamoqqa olingan va o'sha yerda vafot etkan. Mahmud az-Zamaxshariy hanafiy mas'habidan bo'lib mutazilik dini maktabi vakili xisoblangan. Ibn Xolikon tomonidan "Az-Zamaxshariy o'z asrining tengsiz imomi edi. Uzoq hududlardan uning ilmini istab kelishardi va yetuk mufassir olimning tengsiz zakovatidan bahramand bo'lishardi . Mo'tazili etiqodida bo'lib uni hayotining ko'plab jabhalarida tadbqiq etishda xijolat tortmas edi" deb takidlab o'tgan. Manbalarda aytilishicha Zamaxshariyning yoshligida bir oyog'i sinish oqibatida nogiron bo'lib qoladi va umrining keyingi qismini yog'och oyoqda davom etadi . Shu sababli u doim uzun kiyimda yurgan . Oqsoqlanishi sababini atrofdagi insonlar sayohat davomida qattiq sovuq oyog'iga shikast yetkazgan deyilsa, bazilar onasi qushning oyog'iga zarar berganligi uchun kasriga Mahmud qolgan degan fikrlarni keltirib o'tishgan .

Ibn Xallikon rivoyat qilishicha uzoq bir sayohat vaqtida ko'pchilik oyog'i muzlab qolgan sababli kesilgani haqidagi guvoxliklarni o'z ichiga olgan hujjat tayyorlagan.Buning sababi oyog'i kesib tashlanganligi to'grisida odamlarda noto'g'ri tasavvur uyg'onmasligiga zamin yaratardi [2 . 235 238]. Otasi endi og'ir mehnatga yaramaydi , deb uni tikuvchiga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi . Biroq yoshligidan ilmga havasmand Mahmud otasidan Gurganch madrasasiga o'qishga yuborishini so'raydi. Otasi Mahmudning ilmga bo'lgan muhabbatini ko'rib kelgusida o'glini yetuk shaxs bo'lib yetishishini balkim o'sha davrda anglagan holda Gurganch madrasasida taxsil olishiga rozilik bildiradi .U madrasada o'qitilayotgan barcha fanlarni xususan arab tili va adabiyot, diniy yo'nalishdagi ilmlarni qunt bilan o'rganadi. Arab tili uning fikricha eng mukammal til bo'lib , olloh taolo qur'onni nozil qilishda barcha tillardan uni avzal ko'rgan va jannatda ham ushbu tilda so'zlashurlar deb o'z asarlarida iqtibos keltirgan.

Buyuk alloma o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. Mashhur olim Saloibining (961-1138) iborasi bilan aytganda “ Buxoro somoniylar davrida saltanat kabasi, yer yuzi adiblarining yulduzi porlagan va o‘z davrining yetuk kishilari yig‘ilgan joy” deb takidlaydi. Ammo buxoroda Zamaxshariy ilmlarini to‘la to‘kis namoyon etolmaydi. Dastlab Xorazmshohlar saroiyida <<munshiylik>> vazifasini bajaradi. Ammo o‘z qobiliyati, ilm fazilatiga yarasha munosib e‘tibor ko‘rmagach boshqa hududlarga safar qiladi.

Allomaning o‘z davri ilmlarini to‘liq egallashiga , olimlik darajasiga yetishishida ustozlarining o‘rni benihoya katta bo‘lgan. Mana shunday ustozlaridan biri til , lug‘at , adabiyot sohalarida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr al Dabbiy al Isfahoniydan (1113-yil Marvda vafot etgan) taxsil olgan. Isfahoniy Xorazmda ham bir muddat yashagan. Bu holat xorazmda mutazili ta‘limoti paydo bo‘lishiga zamin yaratgan .Zamaxshariy mutazili ilmni keng yo‘sinda o‘rganishiga Isfahoniy turtki bolganligi haqida asarlarida keltirib o‘tgan. Bag‘dodda az- Zamaxshariy adabiyot sir sinoatlarini Abu al Hasan ali ibn al Muzaffar an Naysoburiyd va Abu Nasr al- Isfaxoniydan egallaydi. Hadis ilmni Abu al Xattob Nasr ibn Ahmad al Botir va Abu Sado ayshdan o‘rgangan . Makkada esa nahf va fiqf bo‘yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh al Yabriy al Andalusiydan , lug‘at ilmni esa Abu Mansur ibn al Xadar al Javoliqiy kabi olimlardan egallaydi . Zamaxshariyning shogirtlari ham islom dinida yetuk olimlardan bo‘lib yetishib chiqqan .Ulardan biri ibn Shahrashub qur‘onning shia sharhlovchisi , huquqshunos va muhaddisi bo‘lgan.[3.] Mahmud az Zamaxshariy hayoti davomida Nishopur , Isfahon , Shom , Bag‘dod , va hijozda yashadi , ikki marta makkada bo‘lgan .Olim bu hududlarda ilmi ishlarini davom ettirib mahalliy qabilalar lahjalari, urf- odatlari hamda mintaqqa geografiyasiga oid xilma xil ma‘lumotlar to‘playdi. Zamaxshariy xorazm va xurosonni tark etgach, isfahonga yo‘l oladi . Ammo isfaxon safari davomida og‘ir kasallikka uchraydi. Bazi manbalarda ko‘z nuridan ayrilgan bo‘lsada Makkaga borish maqsadidan qaytmaydi degan ma‘lumotlarni ham uchratish mumkun. Makka safari davomida 1109-yilda Bag‘dodga to‘xtab ilm toliblar bilan uchrashib , maruzalarda qatnashadi. Makkaga yetib borgach uni Amir ibn Vahhos kutib oladi. Zamaxshariy ikki yil mobaynida hukmdor huzurida sharafli mehmon sifatida qoladi. Bu davr mobaynida Arabiston Yamanning turli hududlarida bo‘ladi[4]. .Hali hech qaysi olimga nasib etmagan “ JORULLOH” { Olohning qo‘shnisi} unvoniga sazovor bo‘ladi. Ko‘plab asarlari Makkada

yoziilgani uchun ushbu nom bilan etirof etiladi. U qirq uch yoshda aniqroq aytganda 1118 yil yuqturgan xastaligidan so'ng fikr mulohazalari bir qadar yuksalish davriga kirib boradi va umrining oxiriga qadar kamtarinlik bilan hayot kechiradi. Abu Hanif haqida asar yozgan ibn Qutlubog'a az-Zamaxshariyini o'z davrining imomi deb e'tirof etadi va hanafiy faqihlari qatoridan ham joy olganini qayd etgan [2]. Bazi shia mualliflari az-Zamaxshariyini shia deb davo qilishar "Rabiul abror" asarlaridan baytulloh ahlining fazilatlarini tariflovchi sherlaridan bazi baytlar keltirishar edi . Ammo al-Kashshof asarining bazi joylarida Abu Bakr va Umar (r. a.) maqtab Usmon r.aning taqvosi taqvinga sazovar ekanligini takidlab o'tadi. Asarning bazi qismlarida shia tafsirlarini tanqid qilib bid'at sifatida tafsiflaydi.

Mahmud az-Zamaxshariy ko'p vaqtini Baytul Haramda o'tkazadi. Undan saboq olgan arab olimi Muhammaad Abu Zahroning takidlashiga binoan Zamaxshariyning Xorazmda ham , sharqning boshqa yirik shaharlarida ham 200 dan ziyod shogirdlari bo'lgan. 100 dan ortiq olimlar o'zini g'oyibona Zamaxshariyning shogirdi hisoblashgan. Shogirdlari turli elat va millat vakillaridan iborat bo'lishi taxsinga sazovar jihatlaridan biri xisoblanadi. Olimning say harakatlari mevasi o'laroq shogirdlari tomonidan "Ustoz ul-arab val- ajam" (Arablar va ajamlar ustoz) , " Faxru xvarazm" (Xorazm Faxri) , " Ustoz ad- dunya" (Butun dunyo ustoz) " Ka'ba al-udabo" (Adiblar ka'basi ya'ni zamonasining olim fuzololari orasida qizg'in baxslar davomida fikri inobatga olinardi .Shunday etibor tufayli olim bir asarida < va inni fi xvarazm kaabat al-adab> chindan men xorazm ahli uchun bir kaba bo'lsam kerak deb yozib qoldirgan) [5] kabi sharafli nomlar bilan ulug'lanadi. U yaqinlarining qistoviga qaramasdan hayoti davomida oila qurmaydi .Ilmi asarlar va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan ko'ra a'lo xisoblagan . 1139-yida olim Xorazmgga qaytib , umrining oxiriga qadar shu hududda umir guzaronlik qiladi. Mahmud az-Zamaxshariy hijriy 538 milodiy 1144-yilning 14-aprelda ona diyori Xorazmda arafa kechasida vafot etadi. 1333-yili xorazimda sayohatda bo'lgan ibn Batuta " Al-Rihla" asarida Zamaxshariyning qubbasimon ko'k kumbazli maqbarada dafn etilgan haqida ma'lumot bergan.

Buyuk mutafakkir Zamaxshariy asarlariga to'xtaladigan bo'lsak arab gramatikasi, lug'atshinoslik, adabiyot, hadis va fiqf, aruz ilmi, geografiya, tafsirga oid ellikdan ortiq asar yaratgan. Ammo bizga qadar qisman bo'lsada muxim asarlar yetib kelgan .Jumladan tilshinoslik va lug'atshinoslikka oid "Asos al-balog'at", "Al- Foiq fi-g'arib al-hadis" (G'arib hadislar haqida qimmatli

kitob) asarida hadisda uchraydigan ma'nosini anglash biroz mushkul iboralarning tafsiri keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda Zamaxshariy 3500 dan ortiq arab maqollarini izohli lug'ati bo'lgan "Al- muqtaso fi amsol" asarini arab ma'naviy ilmi xazinasiga taqdim etgan. Toponimik joylashuvlar , tarixi geografik terminlar , tog'larga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.Olim hijozga safari davomida yaratgan " Kitob al-Jibol Valamikina al-miyoh " asari g'arb olimlari o'rtasida nodir qo'lyozma sifatida qadrlanadi. 1856-yilda Gollandiyalik olim Salvardade Grave tomonidan mukammal tadqiq etilib to'liq nashirga chiqarildi. Undan tashqari qomusiy olim tomonidan nahf ilmiga oid " Al-mufrad al muallaf", "al- anmuzaj", hadis , fiqf ilmlarini bisotida jamlagan "Mushtabah asamiy ar ruvot" "Al Roiz fi ilmi faroiz" kabi asarlari davrlar aro evolutsiyalarga dosh bergan holda o'zining haligacha nodir qiymatini yo'qotmagan. Zamaxshari xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan "Muqaddimat ul- adab" asari muhim ahamiyat kasb etadi. Olim asar mahzanida o'sha davrda arab tilining adabiy nutqida ishlatiladigan barcha so'zlar va iboralarni umumlashtirishga va ularning ehtimologiyasiga chuqur etibor berishga harakat qilgan. Asar besh qismdan iborat bo'lib 1137-yilda yozib tugatgan. Yuqoridagi asar haqida Sadriddin Ayniy fikr bildirar ekan asarning chig'atoy tilidagi tarjimasini o'zbek tili uchun muhim ahamiyat kasb etadi deb "Mehnatkashlar tovushi" gazetasiga yozgan maqolasida keltirib o'tgan.

Al-Mufassal. Zamaxshariy ijodida arab tilshunosligi va gramatikasining turli jihatlarini qamrab olishga va bu tilning asil chozibasini ochib berishga qaratilgan asarlari salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan dunyo hamjamiyatida nodir qo'lyozmalar qatoridan o'rin egallagan AL -Mufassal asari olim tomonidan 1121-yilda Makkada yashayotgan davrda bir yarim yil mobaynida yozilgan. Asar arab tilining gramatikasi, sintaksis bog'lanishlari va sarv hamda navh kabi arab tilining murakkab elementlarini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik olimlar bu asar qiymati jihatidan arab tilshunosi Sibavayhning(796 -yili vafot etgan) arab gramatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o'rinda turishini ta'kidlashgan. Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak Shom hokimi Muzaffariddin Muso kimda kim ushbu asarni yod olsa 5 ming kumush tanga mukofot olishi haqida farmon bergan[6].Al-Mufassalning ixchamlashtirilgan muxtasar holatga keltirilgan varianti "Al-Ummuzaj"(Namuna)nomdagi asardir. Bu asarning qo'lyozma nusxasi yurtimizdagi Sharqshunoslik insitutidagi arxiv fondida saqlanadi. Bir so'z bilan aytganda Al-Mufassal asari islom dunyosi umuman dunyo

hamjamiyati uchun arab tilining o'zgacha jihatlarini ochib beruvchi o'ziga xos bir ramziy kalit desak mubolag'a bo'lmaydi.

Al-Kashshof. Bizga ma'lumki o'rta asrlarda e'tiboran qur'oni karimni sharh yoki tafsir bilan o'qish keng tarqalgan. Aynan shu davrda yozilgan Zamaxshariy asarlarining gultoji hisoblangan Al-Kashshof asari olloh taoloning kalomini tushunish istagida bo'lgan din ulamolarining asosiy manbalaridan biriga aylangan. Hozirda ham islom olamida o'zining ilmi ahamiyati jihatdan eng nodir qo'lyozmalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Asarning to'liq nomi "Al-Kashshof an haqiqi it-tanziyl va uyun il aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl" (Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish). Asarning yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak Zamaxshariy Makkada ikki yil davomida (1332-1334) yillar oralig'ida yozib tugatgan. Olim asar muqaddimasida uning yaratilishi haqida shunday izoh bergan. {Ushbu tafsir Abu Bakr Siddiq r.a xalifalik qilgan davrda ikki yil-u ikki oyda yozib tugatadi}. Aslida buni tugatish uchun o'ttiz yil chamalangandi. Balkim Ka'bai muazzamaning fayz barokati-yu menga atalgan nasiba tufaylidur}. Olim asarni ikki bosqichda yozadi. Dastlab yigitlik yillarida Arabistonga haj ziyorati uchun borganida Qur'oni karimning Baqara surasini sharhlay boshlaydi va birinchi qismini Makka amiriga taqdim qiladi. Olim asarni mo'taziliy aqidasi beshta asosiga muofiq bayon qilgan. Ular <tavhid, adl, vad, va'iyd hamda amri maruf va nahyi munkar> kabilar. Tafsiarning o'ziga xos jihati shundaki, unda har bir oyat to'laligicha tafsir etilmasdan, faqat mohiyatini anglash biroz mushkul bo'lgan kalimalarning ma'nosi keltirilgan. Olim asar yaratish davrida shuni anglaydiki Qur'oni karimning har bir oyati olloh taolo tomonidan insoniyatga berilgan eng oliy mukofatligini va uning tafsiiri har bir davr ilm ahli uchun zarur ekanligini bilgan holda asarni yakunlashga astoydil kirishadi. Mahmud Zamaxshariy bu vaqtda oltmish yoshda ekanligini anglagan holda vaqtdan yutish maqsadida tafsir yozish uslubini biroz o'zgartiradi. Asarning qolgan qismini dastlab yozgan "Baqra" surasi tafsiiriga nisbatan ixchamroq qilib yozdi. Az-Zamaxshariy asarni hijriy yil hisobida 528-yil rabiual-oxir oyining 23-kunida yakunlaydi. "Al-Kashshof" asari ko'plab davlatlarda tarjima qilinib nodir qo'lyozmalar qatorida qadirlanadi. Xususan asarning 100ga yaqin qo'lyozma nusxalari va 20dan ortiq sharh hoshiyalari jahon arxiv fondida saqlanmoqda. Dunyodagi mashhur Qoxiraning Al-Azhor dorilfununining talabalari Mahmud az-Zamaxshariyning ushbu tafsiiri orqali Qur'oni karimni o'rganishmoqda. Qur'oni oyatlari insoniyatga nozil qilinishining o'zi bir mo'jiza va Zamaxshariyning ushbu tafsiiri esa insoniyatga taqdim qilingan ramziy kalitdir.

Albatta ulug‘ kalomning ma’no mahzanini o‘rganish uchun hali ko‘p zamonlar “Al-Kashshof” asari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa shuki, Mahmud az-Zamaxshariy umri davomidagi ibratli hayoti arab olamining ma’naviy ongida o‘chmas iz qoldirdi. Olim umrining so‘ngi davrlarida og‘ir xastalikka chalinishi ham uning ollohning baytiga borish maqsadidan qaytarolmagani irodasi va iymoni qanchalik mustahkam bo‘lganidan dalolat beradi. Zamaxshariyning tafsir ilmi rivoji uchun qo‘shgan hissasi islom dunyosi uchun olloh kalomining insoniyatga hali ayon bo‘lmagan sir-sinoatlarini anglashga va insonlarning kundalik hayotida nechog‘lik muhim ekanligini bilib olishga zamin yaratdi. Yurtimizda islom olamining eng yorqin namoyondasining asar nusxalari borligi quvonarli, ammo uning tarjima qismlari yo‘qligi biroz ko‘ngilni xira qiladigan holatlardan biri. Biz ishonamizki kelajakda Zamaxshariy asarlari tarjima qilinib ta’lim tizimimizda ham keng foydalanila boshlanadi. Albatta biz islom bilanmiz, chunki islom rivojlanish tarafdori .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulloh Abdulhamid SAAD.” O‘rta osiyo olimlari qomusi”- T. TOSHKENT 2017.
2. M.O‘zturk, M Suat Zemahsari \\\TDV Islam Ansiklopedisi- ISTANBUL, 2013.
3. C.N.M.VERSTEGH, al Zamakhshariy \\\ Encslopediya of ISLOM Second edition -Leiden E J Brill , 2002 .
4. W Madelung al Zamakhshari \\\ Encyclopaedia of Islam E J Brill 2002- VOL XI.
5. Solijon Hasanov. “ Xorazm ma’naviyat darg‘alari”- Toshkent: “ Adolat ” 2001
6. Е.А.Резван: Аз-Замашари.Ал-кашшаф ан хакаиқ ат танзил (Разкрывающей истины откровения) || хрестоматия по исламу -М. наука 1994.
7. Mustafo as-Sofiy al-Juvayniy. “Manhaju az-Zamaxshariy fi tafsir al Qur’an va Bayani i’jazih.-T. Misr: Dor al-Maorif, 1984
8. “Mahmud az- Zamaxshariy”- Toshkent:,2019

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/tarix/qomusiy-olimlar/sarkardalar/mahmud-zamaxshariy-1075-1144>.
2. <https://oyina.uz/uz/generation/128>.